

QARINDOSHLIK NOMLARINING GENDER IFODASI

Axtamova Nigora Baxtiyorovna
BuxDU 2-bosqich tayanch doktoranti
(O'zbekiston)

E-mail: axtamova.nigora@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17829612>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi qarindoshlik nomlarining gender kategoriyasini ifodalashdagi lingvistik, madaniy va ijtimoiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Qarindoshlik terminlarida xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va qadriyatlar tizimi aks etadi. Tadqiqotda erkak va ayol jinsini bildiruvchi nomlarning semantik, morfologik va pragmatik xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, badiiy matnlardagi va ijtimoiy hayotimizdagi gender rollari va ularning lingvokulturologik mazmuni tahlil qilinadi. Maqolada qarindoshlik tizimi orqali jamiyatda gender rollarining shakllanish jarayoni yoritiladi.

Kalit so'zlar: qarindoshlik nomlari, gender lingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, semantika, ijtimoiy maqom, madaniy qadriyatlar.

Annotation

This article analyzes the linguistic, cultural, and social characteristics of gender expression in Uzbek kinship terms. The terms of kinship reflect the worldview, social relationships, and value system of the people. The study examines the semantic, morphological, and pragmatic features of nouns indicating male and female gender. Additionally, it analyzes gender roles in literary texts and in our social life, along with their linguistic and cultural content. The article highlights the process of formation of gender roles in society through the kinship system.

Keywords: kinship terms, gender linguistics, linguistic cultural studies, ethnolinguistics, semantics, social status, cultural values.

Аннотация

В данной статье анализируются лингвистические, культурные и социальные особенности выражения гендерной категории в названиях родственников на узбекском языке. В терминологии родственных отношений отражаются мировоззрение народа, социальные отношения и система ценностей. В исследовании рассматриваются семантические, морфологические и прагматические особенности имен, обозначающих мужской и женский пол. Также анализируются гендерные роли в художественных текстах и в нашей социальной жизни, а также их лингвокультурологическое содержание. В статье освещается процесс формирования гендерных ролей в обществе через систему родства.

Ключевые слова: названия родственников, гендерная лингвистика, лингвокультурология, этнолингвистика, семантика, социальный статус, культурные ценности.

Kirish

Til — bu inson tafakkuri va ijtimoiy hayotining asosiy aksi bo'lib hisoblanadi. Har bir tilda xalqning madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlar, dunyoqarashi, jins jihatdan murojaat shakllarining farqlanishi kabi bir qancha hodisalar mujassamdir. Shu jihatdan qarindoshlik nomlari til tizimining eng qadimiy va madaniy jihatdan boy qatlamlaridan biridir. Ular orqali

insonning ijtimoiy o'rnini, oilaviy aloqalari, ijtimoiy maqomi hamda jinsiy identifikatsiyasi aniqlanadi.

“Gender” termini fanda, ayniqsa, O'zbekistonda yangi tushunchadir. Hozirgi vaqtda ushbu atama turli bilim sohalarida keng qo'llanilmoqda. Xususan, falsafa, psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik va hatto tilshunoslikda ham faol qo'llanib kelinmoqda. “Gender” atamasining paydo bo'lishiga turli sohalaridagi yutuqlar sabab bo'ldi. Gender tilshunoslik yaqinda paydo bo'lgan bo'lsa-da, faol rivojlanayotgan va yangi tadqiqot muammolarini topayotgan zamonaviy tilshunoslikning bir tarmog'i bo'lishga ulgurgan. Gumanitar fanlarning barcha sohalarida bilimlarning antropotsentrikligiga va individual shaxs parametrlariga bo'lgan qiziqishning ortishi, gender va til o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari lingvistik genderologiyani shakllanishiga asos bo'ldi. “Gender” termini ingliz tiliga lotin tilidan o'tgan. Ingliz tilida gender so'zi, dastlab, grammatik jins ma'nosini bildirgan. Ilk bor biologik va ijtimoiy jinsni farqlash g'oyasi amerikalik antropolog Margaret Mead tomonidan 1935-yilda ilgari surilgan. Margaret Mead jinsdagi madaniy farqlarni o'rgangan birinchi antropologlardan edi.

Ba'zi terminlar jinsiy farqni bevosita ifodalamaydi. Masalan: *jiyan, nabira, nevara, qarindosh, avlod* kabi so'zlar kontekstsiz holda jinsni aniqlashga imkon bermaydi. Bunday birliklar o'zbek tilida gender neytrallikning namunasidir.

Erkak jinsini bildiruvchi terminlar ko'pincha ijtimoiy ustuvorlik, kuch, rahbarlik, qaror qabul qilish, himoya kabi konnotatsiyalar bilan bog'liq.

Masalan: “Rano o'rnidan turdi, dadasidan uyalib loylik qo'llarini orqasiga yashirdi” Qodiriyning “Mehrobdan chayon romanidan ushbu parchada ham dada qarindoshlik so'zining gender ifodasini kuzatishimiz mumkin.” Bu yerda u hurmat va yaqinlik ma'nosini bildirish bilan birga gender rolini ya'ni ota – oiladagi erkak shaxs, himoya, nazorat timsolini bildiradi.

Ayol jinsini bildiruvchi terminlar esa iliqlik, mehr, oila totuvligi bilan bog'liq:

“Maxdum tomonidan Ra'noning tergalishi Nigor oyimni uncha mashg'ul etmadi. Ammo hozir uning ko'ngliga kelgan masala erining chiqim vajiga favqulotda eshilib ketishi edi.” “Oyim” — o'zbek tilida odatda ayol kishiga nisbatan ishlatiladigan hurmat ma'nosini ifodalovchi murojaat shakli bo'lib hisoblanadi

U oddiy odam edi. Hammolchilik qilardi. To'rt qiz, uch o'g'ilni oyoqqa turg'azdi. O'g'illarini uylantirdi. Qizlarini chiqardi. Hammasini uyli-joyli qildi. Ko'z yumayotganida “hammalaringdan mingdan-ming roziman”, dedi...

“Hammalaringdan mingdan-ming roziman” jumlasini orqali otaning oiladagi har bir muammoni hal etish bilan birga qiyinchiliklarni ichiga yutadigan, duo qiladigan, farzandlaridan doim minnatdor bo'ladigan shaxsning ruhiy holat ifodasi O'tkir Hoshimovning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan olingan parchada aks ettirilgan.

Bu holat o'zbek madaniyatida erkak – tashqi kuch, ayol – ichki mehr modeli shaklida mustahkamlanib kelganini ko'rsatadi.

- Anavi nima, oyi? - dedi o'sha tomondan ko'z uzmay. - Laylak, o'g'lim, laylak! - ona o'g'lining boshini silab qo'ydi. - Yura qol, jonim. Bola hech qachon bunaqa qushni ko'rmagan edi. Qush negadir bir oyoqlab turardi. U yana to'xtab qoldi. - Nima u, oyi? - dedi tag'in chinor uchiga ko'z tikib. - Laylak, o'g'lim, laylak. - Nimaga bir oyoqda turibdi? Ona kuldi: - Bir oyog'i charchagandir. - Yura qol, jonim. Bola hech qachon bunaqa qushni ko'rmagan edi. Qush negadir bo'ynini cho'zib tumshug'ini osmonga qaratib silkitar, shunda “tarak-tarak” degan ovoz eshitilardi. Bola

tag'in to'xtab qoldi. - Nima o'zi u, oyi? Uning ko'zlarida quvonch bor edi. Hayrat bor edi. Ona shoshib turardi. Mingta yumushi bor edi. Hali shaharga qaytishi kerak. -Laylak dedim-ku, jinnivoy,- deb ohista egilib, o'g'lining yuzidan o'pdi. – senga salom beryapti-da.

Qarindoshlik nomi	Ma'nosi	Genderi	Kontekst
Ona	Ayol kishi, farzandning onasi	Ayol	Mehribon, sabrli, shoshayotgan
O'g'il	Erkak farzand	Erkak	Hayratlangan, savolchan, bolakay
Jonim	Yaqin kishiga aytiladigan mehr ifodasi	Ayol (ona tomonidan aytilgan)	Emotsional, mehrli murojaat
Jinnivoy	Erkalovchi, hazil aralash atama	Erkak (o'g'ilga nisbatan)	Ona tomonidan erkalash

4. Til va madaniyat o'rtasidagi aloqadorlik

O'zbek xalqida qarindoshlik terminlari faqat oilaviy aloqani emas, balki ijtimoiy muomala me'yorini ham belgilaydi. Masalan, begona kishiga ham “opa”, “aka” deb murojaat qilish o'zaro hurmat ifodasi sifatida qabul qilinadi.

Bu hol til va madaniyatning uzviy bog'liqligini, gender atamalarining ijtimoiy kommunikatsiyadagi rolini tasdiqlaydi.

“Opa, navbat sizdan keyin!” — bu yerda “opa” begona ayolga hurmat bilan murojaat.

“Aka, yordam kerak edi.” — notanish erkakka samimiy murojaat.

“Ukam, bu yoqqa keling.” — yosh yigitga mehr bilan yordam so'rash maqsadida aytilgan.

“Ota, duongizni bering.” — bu yerda “ota” keksaga nisbatan hurmat.

“Ona, salomat bo'ling.” — yoshi katta begona ayolga samimiy tilak.

“Amaki, hovlingizni ko'rib qoyil qoldim.” — tanish yoki begona bo'lsa ham erkak kishiga nisbatan.

“Xola, oshingiz juda mazali.” — begona ayolga mehr bilan.

“Buvi, ertak aytib bering.” — mahalladagi yoki begona bo'lsa ham yoshi katta ayolga, buviga nisbatan.

Bu terminlar hurmat, yaqinlik, samimiyat ifodasi sifatida ishlatiladi. O'zbek madaniyatida bu uslub odobsizlikdan saqlanish, insonlar orasidagi iliqlikni saqlash vositasi hisoblanadi. Ayniqsa katta-kichik muomalada bu terminlar muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tili boy va ifodali til sifatida nafaqat grammatik tizimi, balki ijtimoiy-madaniy kontekstda ham o'ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shunday xususiyatlardan biri — qarindoshlik terminlarining faqat biologik emas, balki ijtimoiy munosabatlar doirasida ham gender jihatdan, turli vaziyatlarga xoslab keng qo'llanilishidir. O'zbek tilida “aka”, “opa”, “amaki”, “xola”, “buvi”, “jonim”, “o'g'lim”, “qizim” kabi so'zlar faqat qarindoshlikni emas, balki hurmat, mehr, yaqinlik, samimiyat kabi tuyg'ularni ham ifodalashini biz atrof-muhitda juda ko'p kuzatamiz va qo'llaymiz. Adabiyotda va og'zaki nutqda bu terminlar obraz yaratish, dialogga jon kiritish, va milliy ruhni ifodalash vositasi sifatida ham ishlatiladi. Ayniqsa, badiiy asarlarda bu uslub orqali mualliflar ona-bola, keksalar va yoshlar yoki mahalla ahli o'rtasidagi munosabatlarni chuqurroq ko'rsatishga harakat qiladilar. Qarindoshlik terminlarining

qarindosh bo'lmagan shaxslarga nisbatan ishlatilishi — bu lingvistik hodisa bo'lib, o'zbek tilining madaniy va emotsional boyligini namoyon etadi. Bu hodisa orqali til nafaqat aloqa vositasi, balki insoniylik, hurmat va mehr ko'zgusiga aylanadi.

Muhokama

Xulosa

1. O'zbek tilidagi qarindoshlik nomlari gender tizimining eng qadimiy va barqaror qatlamlaridan biridir.
2. ¹Ular orqali nafaqat jinsiy farq, balki ijtimoiy maqom, hurmat, mehr, rahbarlik kabi tushunchalar ham ifodalanadi.
3. Erkak jinsini bildiruvchi atamalar ijtimoiy ustuvorlikni, ayol jinsini bildiruvchi atamalar esa mehr-muhabbat va totuvlikni aks ettiradi.
4. Qarindoshlik terminlari milliy mentalitet va patriarxal dunyoqarashning tildagi ifodasidir.
5. Hozirgi zamonda til tizimida gender neytrallikka intilish tendensiyasi kuchaymoqda, bu esa yangi lingvokulturologik jarayonlarning boshlanishidan dalolat beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Berdiyev, H. O'zbek xalqining milliy qadriyatlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
2. Hoshimov, O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2005.
3. Ismoilov, I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. Toshkent "Fan" 1966. B.34-37
4. Narzieva M. Qon-qarindoshlik nomlarining komponent tahlili, "O'zbek tili va adabiyoti" 5-son, Toshkent. 1986.
5. Qodiriy, A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1994.
6. Safarov, Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Toshkent: Akademiya, 2008.
7. Xudoyberganova, D. Til va gender: lingvistik tahlil asoslari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.
8. G'ulomova, M. Gender lingvistikasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Akademnashr, 2020.